XX ASR BOSHLARIDAGI O‘ZBEK PUBLITSISTIK MATNLARIDA TIL LEKSIKASIDAGI O‘ZGARISHLARNING AKS ETISHI

Robiya Vaxobjonova
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
robiyavaxobjonova@gmail.com
+998958325255

Annotatsiya. *maqolada XX asr boshlaridagi o‘zbek publitsistik matnlarida til leksikasida yuz bergan o‘zgarishlar tahlil qilinadi. Jadid publitsistikasi misolida arabiy-forsiy va ruscha o‘zlashma birliklarning qo‘llanishi, yangi leksik birliklarning paydo bo‘lishi hamda ayrim so‘zlarning ma’nosida kengayish va torayish jarayonlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, publitsistik matnlarda sinonimik dubletlar, yangi so‘z birikmalari va okkazional birliklarning ishlatilishi davrning ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy jarayonlari bilan bog‘liq holda tahlil etiladi. Tadqiqot natijasida publitsistik matnlar til leksikasidagi o‘zgarishlarni aks ettiruvchi muhim manba ekani hamda yangi adabiy til me’yorlarining shakllanishida muhim rol o‘ynagani asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *publitsistik matn, jadid publitsistikasi, leksik o‘zgarish, o‘zlashma so‘zlar, neologizm, semantik kengayish, semantik torayish, sinonimik dubletlar, okkazional birliklar, sotsiolingvistika.*

Annotation. *the article analyzes changes that occurred in the lexical system of the Uzbek language in early 20th-century publicistic texts. Based on the example of Jadid journalism, the use of Arabic-Persian and Russian borrowings, the emergence of new lexical units, as well as processes of semantic expansion and narrowing of certain words are examined. In addition, the use of synonymous doublets, new word combinations, and occasional units in publicistic texts is analyzed in connection with the socio-political and cultural processes of the period. The study substantiates that publicistic texts serve as an important source reflecting lexical changes in the language and played a significant role in the formation of new literary language norms.*

Keywords: *publicistic text, Jadid journalism, lexical change, borrowings, neologism, semantic expansion, semantic narrowing, synonymous doublets, occasional units, sociolinguistics.*

Аннотация. *в статье анализируются изменения, произошедшие в лексике узбекского языка в публицистических текстах начала XX века. На материале джадидской публицистики рассматриваются использование арабско-персидских и русских заимствований, появление новых лексических единиц, а также процессы расширения и сужения значений отдельных слов. Кроме того, анализируется употребление синонимических дублетов, новых словосочетаний и окказиональных единиц в публицистических текстах в связи с общественно-*

политическими и культурными процессами эпохи. В результате исследования обосновывается, что публицистические тексты являются важным источником, отражающим лексические изменения языка, и сыграли значительную роль в формировании норм нового литературного языка.

Ключевые слова: *публицистический текст, джадидская публицистика, лексические изменения, заимствованные слова, неологизм, семантическое расширение, семантическое сужение, синонимические дублеты, окказиональные единицы, социолингвистика*

Jamiyatdagi har qanday yangilanish, o‘zgarish eng avvalo, tilda aks etadi. Chunki barcha sohada til bevosita va bilvosita ishtirok etadi. Publitsistik matn jamiyat hayotining eng faol va o‘zgaruvchan qatlamini aks ettiruvchi ko‘rinishi bo‘lib, unda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar bevosita til leksikasida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, XX asr boshlarida yuz bergan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy yangilanish jarayonlari o‘zbek publitsistik matnlarida yangi leksik birliklarning paydo bo‘lishi, mavjud so‘zlarning ma’no kengayishi va torayishi orqali ifodalangan. Leksik o‘zgarish deganda, til lug‘at tarkibining ijtimoiy ehtiyojlar asosida yangilanishi, yangi nominativ birliklar bilan boyishi yoki mavjud birliklarning semantik qayta talqin qilinishi tushuniladi. Leksik o‘zgarishlarni aks ettiruvchi eng yetakchi vosita publitsistika, xususan, publitsistik matnlar sanaladi. Chunki publitsistika ilmiy yoki badiiy uslubga nisbatan tezkor, hozirjavob hisoblanadi.

Hatto rus bosqinining ilk davrlarida o‘zbek tili bilan birga o‘zbek madaniyatini tanishtirish maqsadida ayrim asarlar yozilgan. Jumladan, N.Ostroumov o‘zbek tili, madaniyati, adabiyoti haqida yuzdan ortiq asar yozgan. Shuningdek, bu davr tili, lisoniy o‘zgarishlar, leksikadagi yangilanishlarni tadqiq qilgan olimlardan biri A.K.Borovkov sanaldi. Tilshunos XX asr boshlaridagi o‘zbek tilining holatini davr matbuoti orqali tadqiq etgan va quyidagicha xulosaga kelgan: “Bu davrdagi matbuot tili fevral revolyutsiyasigacha bo‘lgan davrdagi kabi xalqchil til emas edi. Bu davrdagi birorta gazeta tili o‘zbek xalqi tiliga o‘xshamasdi[1]”. Chunki matbuot sahifalaridagi maqolalarda tatar, ozarbayjon, arab, fors-tojik tili elementlari ko‘p qo‘llangan. Bu holdan tashvishga tushgan jadid ziyolilaridan A.Zohiriy – “…XV asrdan inqilobgacha bo‘lg’on davrda xalqning so‘zlashaturg’on tili adiblar tomonidan qo‘pol til, ko‘cha tili sanalib, adabiy tilni unga yaqinlashtirish – kamchilik, xalq tilida yozishlik- qo‘pollik, deb tanqid etilgan. Arabcha forscha lug’atlarni tiqishtirish bilan qanoatlanmasdan, hatto taqriblarni ham arabcha, forscha qilg’onlar. Demak, arab, fors tillari nahviy yoqdan ham tilimizga ta’sir qilg’on. Shuning uchun chig’atoy (o‘zbek) adabiyoti

[1] Боровков А.К. Узбекский литиратурний язик в период 1905-1917 гг. – Ташкент: Учпедиздат УзССР, 1940. – С.19.

usmonli adabiyoti singari xalqdan uzoqlasha boshlag'on, oddiy xalq uni anglay olmag'on. Uni bari o'qumishli, ziyoli sinf anglay oladurg'on bo'lg'on [2]". Arab va fors tillarining kuchli ta'siri natijasida adabiy tilning xalqdan uzoqlashuvi masalasi XX asr boshlaridagi publitsistik matnlarda faol muhokama qilina boshladi. Jadid ziyolilari tilni ijtimoiy taraqqiyot vositasi sifatida baholab, uni xalq uchun tushunarli shaklga keltirish zarurligini ilgari surdilar. Mazkur g'oya publitsistik matnlarning leksik tizimida bevosita aks etdi. Avvalo, murakkab kitobiy va forsiy-arabiy konstruksiyalarning qisqarishi, xalq nutqiga yaqin birliklarning faollashuvi kuzatildi. Publitsistik matnlar orqali yangi ijtimoiy-siyosiy tushunchalar ommalashdi, mavjud so'zlar esa yangi mazmuniy yuklama kasb etdi. Shu tariqa, publitsistik matnlar nafaqat leksik o'zgarishlarni aks ettiruvchi manba, balki ularni shakllantiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ldi. Gazeta va jurnallar sahifalarida yangi birliklarning faol qo'llanilishi, eski leksik qatlamning qayta baholanishi hamda terminologik tizimning shakllanishi davrning til vaziyatini belgilab berdi. Demak, XX asr boshlaridagi publitsistik diskurs leksik o'zgarishlarning nafaqat aks etish maydoni, balki ularning ommalashuv vositasi sifatida ham xizmat qilgan.

O'sha davr o'zbek tilshunosligi masalalari bo'yicha izlanishlar olib borgan A,Hojiyev "O'zbek adabiy tilining taraqqiyotining dastlabki etaplarida, ayniqsa, yigirmanchi yillarga oid yozma manbalarda, tatar tiliga xos ayrim leksik, morfologik elementlarning ko'p qo'llangani kuzatiladi. *"Aytalar", "yozarg'a tegish", "aytarg'a mumkin"* kabi juda ko'p qo'llangan formalar shular jumlasidan[3]". XX asr boshlaridagi til leksikasidagi o'zgarishlar jadid publitsistik maqolalari vositasida yanada yaqqol namoyon bo'ladi.

Bu davr matbuot sahifalarida ilmiy, ma'rifiy, diniy mavzuda yozilgan bo'lsa, ular tili nisbatan murakkab, mumtoz adabiyot tilida foydalanilgan birliklardan ko'p qo'llangan. Lekin publitsistik matnda ijtimoiy, madaniy yoki xalq hayotiga oid mavzular yortilgan bo'lsa, unda publitsistik tili oddiy, soda, xalq tiliga yaqin bo'lgan. Tahlillar natijasida kuzatildiki, M. Behbudiyning "Xayrul umuri avsatuho", "Tarixi ixtiroi bashar", "Sart so'zi majhuldur", "G'alla, askarlik, yer va tazminoti harbiya" nomli maqolalari, H.Muinning "Til masalasi", "Xalq dorilfununi", "Tib va hifz us-sihhatda rioyatsizligimiz", "Muhtaram shuaromizga", "G'azeta o'qimoq manfaati" va boshqa maqolalarida murakkab til birliklari, izofali birikmalar, professional leksika, terminologik birliklardan ko'p foydalanilgan. Chunonchi, *tarix, jug'rofiya, falsafa, xarita, mikrub, duktur, tabib, doru, rasmiy til, daxma, qubba, she'r* kabi professiolanizm va terminologik birliklardan o'rinli foydalanilgan.

[2] Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. Toshkent: O'zbekiston, 2002. – B.121.
[3] Normamatov S. O'zbek tilshunosligi tarixi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari o'zbek tilshunosligi). – Toshkent: Bookmany print 2002. – B.164.

Shu bilan birga yuqorida sanab o‘tilgan maqolalarda arabiy va forsiy izofali birikmalar hamda to‘liq jumlalar berilgan. Bu holat mumtoz adabiyot an’analarining davomi desak mubolag’a bo‘lmaydi. Jumladan, *tarixi xilqat, tarixi milodiy, tarixi xijriya, mushtariyi i’zomig’a, qoriayni kirom, huquqi bashariya, rioyai diniya, e’tiqodi diniya, hurriyati ijtimoiya, hurriyati shaxsiya* va boshqa izofali birikmalar maqolalarda kuzatiladi. Ushbu birikmalar qismlari arabiy+arabiy qolipida yoki forsiy+arabiy (arabiy +forsiy) shaklida bo‘lgan. Masalan, *tarixi xilqat, tarixi milodiy, tarixi xijriya, mushtariyi i’zomig’a, qoriayni kirom, huquqi bashariya* birikmalar arabiy+arabiy konstruksiyasida bo‘lsa, *vazoifi xonadoriy, oinai jahonnoma* izofalarining biri yoki ikkalasi forsiydir. Ko‘rinadiki, XX asr boshlaridagi ilmiy, ma’rifiy, diniy mavzudagi maqolalar tarkibida arabiy birliklar ko‘p o‘rinlarda foydalanilgan.

Shuningdek, arabcha, fors-tojikcha jumlalar (hadislar) aynan keltirilgan. Masalan, *“Qolu al haq valu kon maran[4]”* (To‘g’risini so‘yla achchiq bo‘lsa-da), *“Alajla minashshayton[5]”* (Shoshilgan shaytondandir), “*Qo e’tabaru yo avval ul-absar[6]*” (Ey ko‘zi ochilganlar, atrofga e’tibor beringlar), “*Xayrul umuri avsatuho[7]*” (Ish (amal) ning yaxshisi o‘rtachasidir), “*Buniyal-islamu alannazafati[8]*”, “*Xasr ad-dunyo va-l oxira[9]*” (Dunyo va oxiratni barbod etish) (Islom poklikka qurilgan) kabilar arab tilidan o‘zgarishsiz olingan bo‘lsa, “*Mutakallimro toayb nagirand – suxanash isloh napazirad[10]*”, (So‘z so‘ylaguvchini ayb etmaguncha, so‘zi tuzalmaydur) forsiychadir. Ushbu tahlillar asosida shu ayon bo‘ladiki, XX asr boshlaridagi jadid publitsistikasida arabiy va forsiy izofali birikmalar, jumlalarning qo‘llanilishi tilning ijtimoiy vazifasi bilan bog’liq. Sotsiolingvistik nuqtai nazardan yuqoridagi birliklar muallifning ijtimoiy maqomini, kod almashish jarayonini namoyon etadi. Arab tilidagi jumlalarning tarjimasiz yoki qisman tarjima bilan berilishi matnda til kodining almashinuvini yuzaga keltiradi. Bu o‘rinda arab muqaddas til sifatida namoyon bo‘ladi hamda muallif fikrining diniy asosga tayanganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga bunday birliklarning faol qo‘llanishi muallifning o‘z davri o‘quvchisi bilan aloqani ta’minlagan, ya’ni davr o‘quvchisi – madrasa ko‘rgan ziyolilar, diniy savodli qatlam sanaladi. Shuning uchun bunday birliklarni qo‘llash tabiiydir.

Publitsistik matnlarda keyingi, ya’ni rus bosqining bevosita ta’siri natijasida rus tilidagi o‘zlashmalar, neologizmlar, birikmalar ham ishlatila boshlandi. Lekin ko‘p hollarda og’zaki nutqda qanday talaffuz qilinsa, yozma nutqqa xuddi shu shaklada

[4] Беҳбудий М. Муҳтарам Самарқандийларга холисона арз. Танланган асарлар. – Toshkent: Ma’naviyat, 2005.
[5] Беҳбудий М. Муҳтарам Самарқандийларга холисона арз. Танланган асарлар. – Toshkent: Ma’naviyat, 2005.
[6] Беҳбудий М. Бизни кемиргувчи иллатлар мақола. Танланган асарлар. – Toshkent: Ma’naviyat, 2005.
[7] Беҳбудий М. Хайрул умури авсатуҳо. Танланган асарлар. – Toshkent: Ma’naviyat, 2005.
[8] Муин Ҳ. Тиб ва ҳифз ус-сиҳҳатда риоятсизлигимиз. Танланган асарлар. – Toshkent: Ma’naviyat, 2006.
[9] Беҳбудий М. Танланган асарлар. Оҳ, бонкалар бизни барбод этди. Танланган асарлар. – Toshkent: Ma’naviyat, 2005.
[10] Беҳбудий М. Танланган асарлар. Теётр надур? Танланган асарлар. – Toshkent: Ma’naviyat, 2006.

yozilgan. Bu esa davrda til tizimini tartibga soluvchi qoida, me'yorlar hali ishlab chiqilmagani bilan asoslanadi. Chunonchi, ruscha yoki ruscha-baynalmilal so'zlar: *isxolastik (sxolastik), tiyotru (teatr), pristuf, polisa, paraxud, telegrof, ayruplan, mikrub, duktur, numer, vag'un, triza, prog'ram, pulemut, bonka, po'chta, frunt, g'ubernatur(gubernator)* kabi so'zlar yangi ijtimoiy-siyosiy va ma'muriy tizim bilan bog'liq tushunchalarni ifodalagan. Bu esa rus bosqini natijasida jamiyat hayotida yuz bergan o'zgarishlarning tilga ham ta'sir ko'rsatganini anglatadi. Demak, ruscha o'zlashma, neologizmlar nafaqat yangi leksika sifatida, balki yangi ijtimoiy tuzumning til orqali namoyon bo'lish shakli sifatida ham qaralishi mumkin.

Shu jihatdan, jadid publitsistikasi tilida arabiy-forsiy leksika bilan bir qatorda ruscha leksika ham faol ishlatilib, bu davr tilining o'tish bosqichini aks ettiradi.

XX asr boshlarida jadid publitsistikasi tilida nafaqat yangi leksik birliklar paydo bo'lgan, balki mavjud so'zlarning ma'nosida ham muayyan o'zgarishlar kuzatiladi. Ayrim birliklarda ma'no kengayishi, ayrimlarida esa torayish jarayoni namoyon bo'ladi. Chunonchi, *jamiyat, millat, hurriyat, maorif, xalq, taraqqiyot, ilm* lekemalarida ma'noviy kengayishni kuzatishimiz mumkin. **Ilm** so'zi arab tilidan o'zlashgan bolib, dastlab diniy bilimni anglatgan bo'lsa, jadid publitsistikasida faqat diniy bilimni emas,balli matematika, geografiya, tabiiy fanlar, tibbiyot kabi dunyoviy fanlarni ham anglatadi. Demak, bu leksemaning ma'nosi kengaygan chunki diniy bilim ma'nosi saqlangan holda jadid maqolalarida unga qo'shimcha mazmun – dunyoviy bilim ma'nosi qo'shilgan. Bu holat **jamiyat** so'zida ham kuzatiladi. Kelib chiqishi arabcha so'z bo'lib, dastlabki ma'nosi ma'lum bir birlashma, uyushma, yig'ilish ma'nolarida ishlatilgan. XX asr boshlarida jadid publitsistikasida kengroq mazmun kasb etib, tor ma'nodagi uyushmani emas, balki butun xalq hayoti va ijtimoiy tuzumni anglatadigan tushunchaga aylangan. Masalan, *jamiyat taraqqiyoti, jamiyat hayoti, jamiyatdagi islohot* kabi birikmalar orqali so'z keng ijtimoiy tushunchani ifodalaydi. **Millat** so'zi arab tilidan kirib kelgan bo'lib, dastlab diniy jamoa, e'tiqod yo'li ma'nosini ifodalagan bo'lsa, davr publitsistikasida yangi mazmun: xalq, siyosiy jamoa, milliy birlik kabi ma'nolarda qo'llana boshlagan. Demak, ushbu so'zning diniy ma'nosi saqlanadi, lekin unga siyosiy va ijtimoiy mazmun qo'shilgan. Ushbu so'zning ma'nosida kuzatilgan kengayish jadid davridagi milliy uyg'onish jarayoni bilan bog'liq. Bu birlik diniy tushunchadan chiqib, siyosiy va ijtimoiy mazmun kasb eta boshladi hamda milliy o'zliki ifodalovchi asosiy tushunchalardan biriga aylandi.

Hurriyat so'zi arab tilidan o'zlashgan bo'lib**,** dastlab shaxsiy erkinlik, qullikka qarama-qarshi holat ma'nolarida ishlatilgan. XX asr boshlarida jadidchilik publitsistikasida siyosiy erkinlik, milliy ozodlik, matbuot va fikr erkinligi kabi ijtimoiy va siyosiy ma'nolarida qo'llana boshlagan. Masalan, hurriyati ijtimoiya, hurriyati shaxsiya birikmalarida bu so'z jamiyat hayoti bilan bog'liq keng tushunchani ifodalaydi. Hurriyat so'zining ma'nosida kuzatilgan kengayish jadidchilik davridagi

siyosiy ong va milliy ozodlik g'oyalari bilan bog'liqdir. Bu birlik shaxsiy erkinlik tushunchasidan chiqib, jamiyat va millat taqdiri bilan bog'liq umumiy tushunchaga aylangan. **Maorif** arab tilidan o'zlashgan bo'lib, diniy bilim, savod o'rganish, madrasa ta'limi ma'nolarida qo'llangan. Ya'ni bu leksema, asosan, diniy ta'lim bilan bog'liq bo'lgan. XX asr boshlarida esa zamonaviy ta'lim, dunyoviy fanlar, yangi usuldagi ta'lim, xalqni savodli qilish harakati ma'nosida ishlatilgan. Diniy ta'lim ma'nosi saqlanib, unga qo'shimcha dunyoviy va zamonaviy ta'lim mazmuni ham qo'shilgan. Ushbu birlikning ma'nosida kuztilgan kengayish jadidlarning ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan bog'liq. Bu birlik diniy bilim bilan birga, xalqni zamonaviy fanlar asosida tarbiyalash tushunchasini ifodalovchi umumiy atama hisoblangan.

Jadid publitsistikasi tilida ayrim birliklarning ma'nosida kengayish jarayoni kuzatilib, yuqoridagi birliklar bunga misol bo'la oladi. Ushbu so'zlar an'anaviy, bosh ma'nosini saqlagan holda yangi ijtimoiy va siyosiy ma'nolarni ifodalagan. Bu davr ijtimoiy hayoti, tafakkuridagi o'zgarishlarning tilga bevosita ta'sirini ko'rsatadi.

Jadid publitsistikasi tilida ayrim birliklarning ma'nosida torayish hamda tarixiy leksikaga aylanish holatlari kuzatiladi. Bunda so'zlar dastlab kengroq ma'noni bildirgan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan ma'lum bir ijtimoiy, tarixiy yoki kasbiy sohadagina qo'llanadigan birliklarga aylangan. Natijada ularning qo'llanish doirasi cheklanib, semantik hajmida torayish yuzaga kelgan. Bunday birliklar o'zining dastlabki ma'nosidan uzoqlashib, aniq bir tarixiy yoki ijtimoiy hodisani ifodalovchi termin sifatida ishlatila boshlagan. Jumladan, ellikboshi, yallachi, bachcha, sadrnishin, hurriyatchi, mullo, qozi, afandi kabilar. **Ellikboshi** so'zi tarixan ma'muriy-harbiy lavozim nomi bo'lib, ma'lum miqdordagi guruh boshlig'ini ifodalagan. XX asr boshlarida ijtimoiy hayotda mavjud mansab nomi sanalgan. Bugungi kunda bu birlik tarixiy leksikaga aylangan. **Yallachi** – xalq qo'shig'i va raqsini ijro etuvchi shaxsni bildiradi. XX asr boshlarida to'y, bazmlarda o'rtada raqsga tushuvchi ayollarga nisbatan qo'llangan. Ushbu so'zning ma'nosi saqlangan, lekin funksional jihatdan chegaralangan. Ya'ni qo'llanish sohasi folklor va sahnadagi ijro bilan bog'liq. **Bachcha** – kelib chiqishi forsiy bo'lib, dastlab bola ma'nosini bildirgan. Keying davrlarda kontekslarda salbiy ijtimoiy ma'no ifodalagan. Bosh ma'nosi bilan birga qo'shimcha salbiy konnotatsiyaga ega bo'lgan. Hurriyatchi – erkinlik tarafdori, siyosiy harakat vakili ma'nosini anglatib, XX asr boshlarida faol siyosiy termin bo'lgan. Bugungi kunda esa, asosan, tarixiy matnlarda uchraydi, chunki bu birlik tarixiy leksemaga aylangan. **Afandi** – XX asr boshlarida o'qimishli, ma'rifatli shaxsga nisbatan ishlatilgan va ijtimoiy maqomni ifodalagan. Bu davrda bu birlik faol qo'llangan. Hozirgi kunda ma'noviy jihatdan kengaygan, chunki hurmat ma'nosi bilan birga ommani kuldiruvchi insonga nibatan ham qo'llanadi.

Shunday qilib, jadid publitsistikasi tilida ayrim leksik birliklarning ma'nosida torayish jarayoni kuzatiladi. Dastlab kengroq ma'noda ishlatilgan so'zlar vaqt o'tishi

bilan muayyan ijtimoiy yoki tarixiy hodisalarni ifodalash bilan cheklanadi. Natijada ularning qo‘llanish doirasi torayadi yoki eskirgan birliklarga aylanadi. Bu jarayon jamiyatdagi o‘zgarishlarning til leksikasida ham aks etganini ko‘rsatadi.

Publitsistik matnlarni tahlili davomida sinonimiya hodisasida mavjud bo‘lgan leksik dubletlar jadid publitsistikasida faol qo‘llangan. Jumladan, *gazet (g’azeta, gazit, g’azet variantlari) – jarida, siyosat – politika, reja -plan (plon), hisob – matematika, bonka (bank) – xazinaxona, qozi – sudya* kabi. Publitsistik matnlarda bunday leksik dubletlarning parallel qo‘llanishi davr ijtimoiy-madaniy jarayonlari bilan bog’liqdir. Bu holat jamiyatda turli til shakllari – an’anaviy leksika va ruscha-baynalmilal terminlarning bir vaqtda faol bo‘lganini ko‘rsatadi. Natijada jadid publitsistikasi tilida eski va yangi leksik birliklarning yonma-yon qo‘llanishi kuzatiladi. Bu jarayon tilning ijtimoiy taraqqiyot va madaniy o‘zgarishlar bilan uzviy bog’liqligini namoyon etadi.

Davr publitsistikasida yuqoridagi o‘zgarishlar bilan birga ijtimoiy, madaniy-ma’rifiy yangilanishlar natijasida nafaqat leksemalar (so‘zlar), balki so‘z birikmalar ham yangi tushunchalarni ifodalashga xizmat qilgan. Masalan, *ususli jadid, usuli qadimiy, ususli savtiya, o‘quv yurti, oliy maktab, bolalar bog’chasi, qizlar maktabi* kabi birliklar jamiyatdagi yangi hodisalarni ifodalovchi nomlar sifatida qo‘llangan. Bu birikmalar jamiyat hayotidagi yangilanish, ta’lim tizimidagi islohotlar hamda ma’rifatparvarlik g’oyalari bilan bevosita bog’liq holda shakllangan. Ushbu davrning publitsistik tahlili jarayonida ayrim okkazional birliklar ko‘zga tashlandi. **Okkazional so‘zlar** – mahsuldor bo‘lmagan model asosida yasalgan va faqat shu nutqiy matnning o‘zida qo‘llangan so‘z, individual-uslubiy neologizm[11]. Bunday birliklar tilning mavjud so‘z yasash imkoniyatlari asosida hosil qilinib, ko‘pincha matn doirasida ma’lum uslubiy vazifani bajaradi. Jadid publitsistikasida ham mualliflarning ijtimoiy-siyosiy g’oyalarini ifodalash, tanqidiy munosabatni ifodalash maqsadida qo‘llangan. Chunonchi, H.Muin maqolalarida *xurofotchi, faqirlana bermoq, qisinqilik, bolsheviknamo, ishlikli, ixtiyorli, insoniyatparvar, xazinaxona, noxulq, qadrshinoslik, jaridaxon, g’arazgarona, savodzada, turklik*; M.Behbudiy publitsistikasida esa *qarzxoh, foydaxo‘r, foydaxo‘rlik, tarbiyatxona, tijoratxona, san’atxona, teatrxona, asarlanib, umidgoh, kitobchi*; M.Abdurashidxonov maqolalari matnida *sovchigarchilik, e’lonnoma, ibratxona, qonunnoma, shikoyatxona* kabi birliklar muallifning individual uslubiga xos okkazional yasalmalar sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur birliklar jadid publitsistikasi tilining ijodiy imkoniyatlarini ko‘rsatib, mualliflarning yangi ijtimoiy va madaniy tushunchalarni ifodalashga intilganini namoyon etadi. XX asr boshlaridagi jadidchilik harakatining mashhur vakillaridan biri A.Zohiriy matbuot tilining tobora me’yorlashib borayotganligini, lekin shunday bo‘lsa

[11]Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: “ Ўзбекстон Миллий Энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2002. – Б.74.

ham, ayrim gazetalar shevachilikdan va tatarcha elementlardan qutula olmayotganini, “boru”, “kelu”, “ borsamiz”, “kelsamiz” singari so‘z shakllari ishlatilayotgani ko‘rsatib o‘tiladi. Shu bilan birgalikda, so‘zlarning yozilishida xilma-xillik uchrayotganini (masalan, qilalik-qilaylik- qilayluk- kilaylik; qandoq- qondoq- qanday kabilar), shuning uchun ham mutaxassislar yig’ilishib bunday shakllardan qaysi birini tanlashni kelishib olishlari zarurligini ta’kidlaydi[12].

Ko‘rinadiki, davr tilidagi muhim o‘zgarishlardan biri matnlarda tatarcha, usmonli turkcha so‘z va morfologik shakllarni ko‘p qo‘llanishidir. Bu holat H.Muin publitsistik maqolalarida ko‘proq kuzatiladi. Jumladan, *“...taraqqiysi uchun mumkin qadar har bir* ***choraya*** *tashbish* ***edar****”, “Bizning Turkistong’a esa hatto bir dona o‘lsun milliy g’azeta yo‘qdur. Bizning* ***hayotsizlig’imiza*** *va ham maorifi zamon va sanoi jadidadan butun bebahra* ***o‘ldug’umiza*** *shul bir dona milliy g’azetaya molik* ***o‘lmadig’imiz*** *dalil bo‘lsa kerak”* jumlalarida ko‘rinadiki, *choraya* so‘zidagi -ya shakli -ga jo‘nalish kelishigining fonetik variant bo‘lib, *edar* so‘zi esa turkiy tillardagi etmoq, qilmoq fe’llaridir. *Hayotsizlig’imiza* leksemasidagi “g” tovushining “g’” tallaffuz qilinishidir, -a qo‘shimchasi esa jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasidir. O‘ldug’umiza, *o‘lmadig’imiz* so‘zlari tarkibidagi -duk/ di shakllari sifatdosh shakli -gan qo‘shimchasiga to‘g’ri keladi. Jadid publitsistikasi tilida kuzatilgan usmonli turkcha shakllar til taraqqiyotidagi keskin o‘zgarish emas, balki asta-sekin yangi adabiy me’yor bilan almashish jarayonini aks ettiradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, publitsistik matnlarda til leksikasidagi o‘zgarishlar davr ijtimoiy, siyosiy va madaniy jarayonlari bilan bevosita bog’liq holda namoyon bo‘ladi. XX asr boshlaridagi jadid publitsistikasida yangi tushunchalarni ifodalash ehtiyoji natijasida neologizmlar, o‘zlashmalar hamda yangi so‘z birikmalari faol qo‘llangan. Shu bilan birga, ayrim leksik birliklarning ma’nosida kengayish va torayish kabi semantik o‘zgarishlar kuzatiladi.

Publitsistik matnlarda sinonimik dubletlarning parallel qo‘llanishi tilning turli qatlamlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirini ko‘rsatadi. Bunda an’anaviy leksika bilan bir qatorda rus tili va rus tili orqali kirib kelgan yangi terminlarning ham faol ishlatilgani kuzatiladi. Shuningdek, mualliflarning individual okkazional birliklari publitsistik matnning ta’sirchanligi va obrazliligini oshirishga xizmat qilgan. Demak, publitsistik matnlar til leksikasidagi o‘zgarishlarni kuzatish va tahlil qilishda muhim manba bo‘lib, ular orqali davr ijtimoiy hayotidagi o‘zgarishlar hamda yangi adabiy til me’yorlarining shakllanish jarayonini ko‘rish mumkin.

[12] Normamatov S. O’zbek tilshunosligi tarixi (XIX-asr oxiri – XX asr boshlari o’zbek tilshunosligi) (o’quv qo’llanma). – Toshkent: Bookmany print, 2022. – B.50.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Боровков А.К. Узбекский литиратурний язик в период 1905-1917 гг. – Ташкент: Учпедиздат УзССР, 1940. – С. 103.
2. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. Toshkent: O'zbekiston, 2002. – B. 250.
3. Normamatov S. O'zbek tilshunosligi tarixi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari o'zbek tilshunosligi). Toshkent: Bookmany print. 2002, – B.164.
4. Беҳбудий М. Муҳтарам Самарқандийларга холисона арз. Танланган асарлар. – Toshkent: Ma'naviyat, 2005.
5. Беҳбудий М. Муҳтарам Самарқандийларга холисона арз. Танланган асарлар. – Toshkent: Ma'naviyat, 2005.
6. Беҳбудий М. Бизни кемиргувчи иллатлар мақола. Танланган асарлар. – Toshkent: Ma'naviyat, 2005.
7. Беҳбудий М. Хайрул умури авсатуҳо. Танланган асарлар. – Toshkent: Ma'naviyat, 2005.
8. Муин Ҳ. Тиб ва ҳифз ус-сиҳҳатда риоятсизлигимиз. Танланган асарлар. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006.
9. Беҳбудий М. Танланган асарлар. Оҳ, бонкалар бизни барбод этди. Танланган асарлар. – Toshkent: Ma'naviyat, 2005.
10. Беҳбудий М. Танланган асарлар. Теётр надур? Танланган асарлар. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006.
11. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. Тошкент: "Ўзбекстон Миллий Энциклопедияси" давлат илмий нашриёти, 2002. – Б. 164.